

Vatan deb...

Mahmud Toir

Aytsam, nondek shirin so`z bor dunyoda,
Aytsam, jondek shirin so`z bor dunyoda.
Vatan deb, shivirlab aytib ko`ring siz,
Vatan deb, ko`ngilga qaytib ko`ring siz.
Chehrangiz balqiydi, quyosh bo`lasiz,
Qalbingiz qalqiydi, ko`z yosh bo`lasiz.

Onajon, deganda entikkan dildek,
Ozodsan, deganda yayragan quldek.
Vatan, deb entikib elanib aytинг,
Vatan, deb vafoga belanib aytинг.
Jon ichra yuz ochgan bir jon bo`lasiz,
Siz yerga sig`magan osmon bo`lasiz.

Bolangiz quvonchi to`kilgan tuproq,
Quyosh bir ko`rmasa o`kingan tuproq.
Jannatday muqaddas chaman bo`ladi,
Ayo do`s, u bizga Vatan bo`ladi.
Vatan, deng ko`ngilning ko`zi ochilsin,
Vatan, deng sog`inchning yuzi ochilsin.

Vatan alla bergen oromdek shirin,
Vatna xalq ko`rsatgan ikromdek shirin.
Vatan, deng xudoga yukunib aytинг,
Asra, deng tiz cho`king o`kinib aytинг.
Vatan, deb biz buyuk bir xalq bo`lamiz,
Vatan, deb iymonda barhaq bo`lamiz.

Ona yurt

Mahmud Toir

Xudo bersa qomati ko`rki bo`lsin yigitning
Vale qalqon tutguychi ko`ksi bo`lsin yigitning
Vatanida vazni bor odam otdan tushmagay
Yurtida xush havodan ko`ksi to`lsin yigitning.

Ota yurt bu ona yurt sha`ni yashar qoningda
Momo yerning isi bor ushatilgan noningda
Yurt chirog`in shu`lasi yuzingga tushib turar

Agar boqiy baxt bo`lsa u O`zbekistoningda

Bog`ingdagi g`unchani zog`lardan qo`riqlagin
Millatning gulday ko`nglin dog`lardan qo`riqlagin
Osmoningga oy chiqsa oftobingga yetguncha
Ikki ko`zingni o`g`lon yog`lardan qo`riqlagin

O`zbekman deganingda bekliging yodda tursin
Shohingni shohdek asra yovlaring motda tursin
Alpomish avlodisan shu Vatan tuprog`ida
Gar o`zing piyodasan g`ururing otda tursin

O`zbegin

(*qasida*)

Erkin Vohidov

Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon o`zbegin,
Senga tengdosn Pomir-u, oqsoch Tiyonshon o`zbegin.
So`ylasin Afrosiyib-u, so`ylasin O`rxun xati,
Ko`hna tarix shodasida bitta marjon o`zbegin.

Al Beruniy, Al Xorazmiy, Al Farob avlodidan,
Asli nasli balki O`zluq, balki Tarxon o`zbegin.
O`tdilar sho`rlik boshingdan ,o`ynatib shamshirlarin
Necha qoon, necha sulton, hecha ming xon o`zbegin.

Tog`laring tegrangda go`yo bug`ma ajdar bo`ldi-yu,
Ikki daryo-ikki chashming, chashmi giryon o`zbegin.
Qaysari Rum nayzasidan, bag`rida dog` uzra dog`
Chingiz-u Botu tug`iga ko`ksi qalqon o`zbegin.

Yog`di to`rt yondin asrlar, boshingga tiyri kamon,
Umri qurban.mulki toroj. Yurti vayron o`zbegin.
Davr zulmiga va lekin,bir umr bosh egmading,
Sen-Muqanna, sarbador-sen, erksevar qon o`zbegin.

Sen na Zardusht, sen na buddiy, senga na otash sanam,
Odamiylik dini birla ,toza imon o`zbegin.
Ma'rifatning shu'lasiga talpinib zulmat aro,
Ko`zlaringdan oqdi tunlar kavkabiston o`zbegin.



Tuzdi-yu Mirzo Ulug`bek ,Ko`ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk qo`ydi narvon o`zbegin.
Mir Alisher na`rasiga aks sado berdi jahon,
She`riyat mulkida bo`ldi , shoh-u sulton o`zbegin.

Ilm-u she`rda shoh-u sulton lek taqdiriga qul
O`z elida chekdi g`urbat zor-u nolon o`zbegin
Mirza Bobur sen fig`oning soldi olam uzra o`t
Shoh Mashrab qoni senda urdi tug`yon o`zbegin

She`riyatning gulshanida so`ldi mahzun Nodira
Siym-u tanni yuvdi ko`z yosh ko`mdi armon o`zbegin
Yig`ladi furqatda Furqat ham muqimlikda Muqim
Nolishingdan hind-u afg`on qildi afg`on o`zbegin

Tarixing bitmakka xalqim mingta Firdavsiy kerak
Chunki bir bor chekkan ohing mingta doston o`zbegin
Ortda qoldi ko`hna tarix ortda qoldi dard sitam
Ketdi vahming bitdi zahming topdi darmon o`zbegin

Bo`ldi osmoning charog`on tole xurshidi bilan
Bo`ldi asriy tiyra shoning shul`a afshon o`zbegin
Men Vatanni bog` deb aytsam sensan unda bitta gul
Men Vatanni ko`z deb aytsam bitta mujgon o`zbegin

Faxr etarman ona xalqim ko`kragimni tog` qilib
Ko`kragida tog` ko`targan tanti dehqon o`zbegin
o`zbegin deb keng jahonga ne ucun madh etmayin
o`zligim bilmoqqa davrim berdi imkon o`zbegin

men buyuk yurt o`g`lidurman men bashar farzandiman
lekin avval senga bo`lsam sodiq o`g`lon o`zbegin
menga Pushkin bir jahonu menga Bayron bir jahon
Lek Navoiydek bobom bor ko`ksim osmon o`zbegin

Qayga bormay boshda do`ppim shuhratim qadrim buyuk
Olam uzra nomi ketgan O`zbekiston o`zbegin
Bu qasidam senga xalqim oq sut-u tuz hurmati
Erkin o`g`lingman qabul et o`zbeginjon o`zbegin



O`zbekiston
Abdulla Oripov

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o'z yurtin butun -
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o'lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O`zbekiston, Vatanim manim

Yurmasman hech behishtni izlab,
Topolmasam chekmasman alam.
O'tirmasman ertaklar so'zlab,
Musallo deb yo'nmasman qalam.
Ko'klamingdan olib sururni,
Dovrug' soldi ustoz Olimjon,
G'afur G'ulom tuygan g'ururni
Qilmoq mumkin dunyoga doston.
Olis tarix qadamim manim,
O`zbekiston, Vatanim manim.

Kechmishing bor chindan ham uzoq,
Ilg'ay olmas barchasin ko'zim.
Maqtamasman moziyni biroq,
O'tmishingni o'ylayman bir zum.
Zabtga olib keng Osiyoni,
Bir zot chiqdi mag'rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.
Aytgum, bu kun, u manim, manim.
O`zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor
Ko'ragoniy jadvallarida.
Qotil qo'li qilich soldi mast,

Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,
U, Ulug'bek ko'zidagi yosh.
Erda qolgan, o, tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'z oldimdan kechar asrlar,
Ko'z-ko'z etib nuqsu chiroyin.
Sarson o'tgan necha nasllar,
Topolmasdan tug'ilgan joyin.
Amerika - sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz orton yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash'ali.
Kolumbdan bor alamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,
Hammasinga guvoh er osti.
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro
Jahongiri kam bo'lar, rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir she'r.
Temur tig'i etmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo'ldi chamanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'zladim, ammo
Bir zot borkim, baridan suyuk:
Buyuklarga baxsh etgan daho,
Ona xalqim, o'zingsan buyuk.
Sen o'zingsan, eng so'nggi nonin
O'zi emay o'g'liga tutgan.
Sen o'zingsan, farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o'tgan.
Ona xalqim, jon-tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bosh ustingdan o'tdi ko'p zamon,
O'tdi Budda, o'tdi Zardushti.

Har uchragan nokasu nodon,
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.
Seni chingiz g'azabga to'lib
Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.
Jaloliddin samani bo'lib
Sakrab o'tding Amudaryodan.
Sensan o'shal samanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Toleingda bor ekan yashash,
Goh qon ichding, gohida sharob.
Etmoq bo'lib yurtim xomtalash,
Bosh ustingga keldi inqilob.
Chora istab jang maydonidan
Samolarga uchdi unlaring,
Shahidlarning qirmiz qonidan
Alvon bo'ldi qora tunlaring.
Qonga to'lgan kafanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Lekin oftob poymol o'lmas,
Kavaklarda qolmas oy nuri,
Odil hakam - haq bor, beg'araz,
Mazlumlarning buyuk g'amxo'ri.
Qilich serpab tole tongida
O'zligingni tanib qolding sen.
O'g'lonlarning qatra qonida
O'zbekiston nomin olding sen.
Nomi qutlug' gulshanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Tinch turarmi bu ko'hna olam,
Tinch turarmi dog'uli zamon.
Oromingni buzdi sening ham
Fashist degan vahshiy olomon.
Qonim oqli Dansigda manim,
Sobir Rahim yiqilgan chog'da.
Lekin, yurtim, kezolmas g'anim.
O'zbekiston atalgan bog'da.

Sensan nomus va sha'nim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kech kuz edi, men seni ko'rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o, dehqon yurtim,
Turar eding yalangto'sh, yayov.
- Tashqarida izillar yomg'ir,
Kir, bobojon, yayragil bir oz.
Deding: - Paxtam, qoldi-ku axir,
Yig'ishtiray kelmasdan ayoz.
Ketding, umri mahzanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Sen ketarsan balki yiroqqa,
Farg'onada balki, balqarsan.
Balki chiqib oqargan toqqa,
Cho'pon bo'lib gulxan yoqarsan.
Balki ustoz Oybekdek to'lib
Yozajaksan yangi bir doston.
Balki Habib Abdulla bo'lib,
Sahrolarda ochajakson kon.
Tuprog'i zar, ma'danim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo,
Fazolarga qo'ysang ham qadam,
O'zligingni unutma aslo,
Unutma hech, onajon o'lkam.
Bir o'g'lingdek men ham bu zamon
Kechmishingni qildim tomosha.
Iqbolingni ko'roldim ayon
Istiqlolning ufqlari osha.
Iqboli hur, sho'x-shanim manim.
O'zbekiston, Vatanim manim.

Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam,
Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam,
Do'stu yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida

Boqiy turgay koshonang sening.

Ulug' bashar oilasida

Mangu yorug' peshonang sening.

Mangu yorug' maskanim manim,

O'zbekiston, Vatanim manim.

Men nechun sevaman O`zbekistonni...

Abdulla Oripov

Men nechun sevaman O`zbekistonni

Tuprog`in ko`zimga aylab to`tiyo

Nechun Vatan deya yeru osmonni

Muqaddas atayman atayman tanho

Aslida dunyoda tanho nima bor

Paxta o`smanydimi o`zga elda yo

Yoki quyoshimi sevgimga sabab

Axir quyoshliku butun osiyo

Men nechun sevaman O`zbekistonni

Bog`larin jannat deb ko`z-ko`z etaman

Nechun ardoqlarkan tuprog`ini men

O`paman tuprog`ing bebafo vatan

Aslida tuproqni odil tabiat

Taqsim aylaganku yer yuziga teng

Nechun bu tuproq deb yig`ladi Furqat

O Qashqar tuprog`I qashshoqmiding sen

Xo`sh nechun sevaman O`zbekistonni

Sababini aytgin desalar menga

Shoirona go`zal so`zlardan oldin

Men tazim qilaman ona xalqimga

Xalqim tarix hukmi seni agarda

Mangu muzliklarga eltgan bo`lsaydi

Qorliklarni makon etgan bo`lsayding

Mehrim bermasmidim o`sh muzlarga

Vatanlar Vatanlar mayli gullasin

Bog` unsin mangulik muzda ham ammo

**Yurtim seni faqat boyliklaringchun
Sevgan farzand bo`lsa kechirma aslo**

Aytgil do'stim nima qildik vatan uchun

Iqbol Mirzo

Boshing egib ta'zim ayla, shukrona ayt
Seni guldek erkalagan chaman uchun
Osmonlarda yurgan bo'lsang tuproqqa qayt
Aytgil do'stim nima qildik vatan uchun

Ko'zi qora, yuragi oq shu el uchun
Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun
Ulug' inson boshlab bergen shu yo'l uchun
Aytgil do'stim nima qildik vatan uchun

Qachongacha qorning o'ylab o'tadursan
Qachongacha ko'kdan chalpak kutadursan
Axir vatan bitta, sen ham bittadursan
Aytgil do'stim nima qildik vatan uchun

Buncha bino qoymang zarrin choponlarga
Saratonda yaproq bo'lgin dehqonlarga
Suyangani tayoq bolgin cho'ponlarga
Aytgil do'stim nima qildik vatan uchun?

Hech kimdan kam emassan, kam bo'l magaysan
Yerda qolsang quyosh bo'lib kulmagaysan
Qachon belni maxkam tortib bog'lagaysan
Aytgil dostoni nima qildik vatan uchun

Shu soylardan suvlar urgin yuzinga sen
Bir bor nazar solgin bosgan izinga sen
Shu savolni berib ko'rgin o'zinga sen
Aytgil do'stim nima qildik vatan uchun

**Hayotning har lahzasi go'zal
O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon**

Tun pardasi ochilib asta

Chiqib kelar sahnaga quyosh.
Kelinchakdek bo‘lib orasta
Gul salomdan ko‘taradi bosh.
Hayotning har lahzasi go‘zal,
Umrning har dami g’animat.
Hovli go‘yo artilgan chinni,
Yo‘llar go‘yo yuvilgan oynak.
Qutlash uchun yangi bu kunni
El oyoqqa turar jonsarak
Hayotning har lahzasi go‘zal,
Umrning har dami g’animat.
Qaymoq isi yaratar tanni,
Dasturxonda issiq kulchalar.
Suv bosgandek qaqroq o`zanni
Odamlarga to`lar ko`chalar
Asli hatto go‘dak emizmoq
Barobardir og’ir yumushga.
Oshiqarlar yuraklar qaynoq,
Birov ishga, birov o‘qishga.
Hayotning har lahzasi go‘zal,
Umrning har dami g’animat.
Duch keladi yuzlab chehralar,
Ko‘pin qaytib ko‘rmoqlik mahol.
Ular dilga yaqin naqadar,
Shuning o‘zi tunganmas iqbol.
Barchinoylar nigohida sir,
Alpomishlar ko‘zida yashin.
Yoshlik qaytar qalbg asochib nur,
Eslaysa ilk sevgi otashin...
Hayotning har lahzasi go‘zal,
Umrning har dami g’animat.
Bir mahallar berishgan salom,
Endi esa olishar alik.
Tillarida duo, xush kalom,
Saodatdir hatto keksalik.
Kulib turgan munchoqko‘z bola
“Tinchlik” so‘zin solar yodingga.
Sochlaringdan erib oq tola,
Intilasan yana oldinga.
Hayotning har lahzasi go‘zal,

Umrning har lahzasi g'animat.
Bu yurda alp chinorlar o'sar,
Ko'k gumbazlar o'ngu so'lingda.
Bir azaga kirib o'tsang gar,
So'ng o'ngta to'y uchrar yo'lingda.
Goh birovlar tanishar ilk bor,
Goh yig'lar eski ulfatlar.
Odamzodga dunyo bo'lmas tor,
To mavjuddir shirin suhbatlar...
Hayotning har lahzasi go'zal,
Umrning har dami g'animat.
Bosh ko'tarmas kimdir ishidan,
Kimdir o'ylar ulug' bir reja.
Yana sirli orom qushiday
Qo'na boshlar yurtimga kecha.
Bugunidan el ko'ngli to'lib,
Ertangi kun uchun to'plar dosh.
Anvar shoir charchog'I bo'lib,
Tog' ortiga yonboshlar quyosh...
Hayotning har lahzasi go'zal,
Umrning har dami g'animat.

Vatanim

Muhammad Yusuf

Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug` jahonim,
O'zim xoqon, O'zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg`izim, Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug`lardan
Ulug`imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi, Onam deymi,

Hamdardu hamxonam deymi,
Oftobdan ham o`zing mehri -
Ilig`imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan, Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan,
Navoiysan, shoh yonida
Faqirini duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko`ringan da`vo qilgan,
Ming bir yog`i ochilmagan
Qo`rig`imsan, Vatanim.

Sen Ho`jandsan, Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig`i
Olovlargacha sakragan,
Shiroqlarni ko`rgan cho`pon
Cho`lig`imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin - Qurdistonda,
Boburing - Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolig` deb
Yotarlar zimistonda,
Traqab ketgan to`qson olti
Urug`imsan, Vatanim...

O`g`lim desang osmonlarga
G`irot bo`lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo`lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug`beging quchgayman,
G`ichir-g`ichir tishimdagi
So`lig`imsan, Vatanim...



O`tgan kuning - o`tgan kundir,
O`z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergen zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo`lin bog`lab, Dilin dog`lab,
Yetaklashib ketgan kun,
Voh bolam! deb aytolmagan
Dudug`imsan, Vatanim.

Yoningda qon yig`lagan bir
Shoiringga qarab qo`y,
Gar Qo`qonga yo`ling tushsa,
Detdomlarni so`rab qo`y.
Hech bo`lmasa Usmon hokin
Keltirmoqqa yarab qo`y,
Olislarda qurib qolgan
Qudug`imsan, Vatanim...

Sen - shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam, O`glim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo`ynimdag'i iftixorim,
Bo`ynimdag'i tumorim,
O`zing mening ulug`lardan
Ulug`imsan, VATANIM !

Tavallo

Muhammad Yusuf

Oq yo`rgakka o`ragansan o`zing bizni,
Ham oq yuvib-taragansan o`zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo`lib,
Kunimizga yaragansan o`zing bizni.
Fidoying bo`lgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston!..

Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o`g`loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o`pib,





Yovlar yaqin yo`lolmagay qo`rg`oningga.
Adoying bo`lgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston.

Tuzing totib, unutganlar xor bo`ladi,
Ko`zlariga ikki dunyo tor bo`ladi.
Shodon damping ko`rolmagan yurtfurushlar
Bir kun bir kaft qumlog`ingga zor bo`ladi.
Yoningda turgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston!..

Gul ko`ringan dashtingdagi giyoh-xasdir,
Soddadilu ulug`vorlik senga xosdir.
Sevamizki, cho`llaring ham bizga jannat,
Tuprog`ing ham Makka misol muqaddasdir.
Onadek ko`rgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston!

MENI OLIB KETING

Abdulla Oripov

Tinch edi hamma yoq, tinch edi har yon,
Titradi go`yoki yer bilan osmon.
Boshimga xastalik tushdi nogahon,
Meni olib keting o`z diyorimga.

Issiq jon, deydilar, jon bo`lsa bo`lar,
Payt kelsa chechak ham sarg`ayar, so`lar.
Kim bilgay paymonang qay yerda to`lar,
Meni olib keting o`z diyorimga.

Ginam bor bu yurtning na havosidan,
Mehribon doktorning na davosidan.
Qaytarmang xastani muddaosidan,
Meni olib keting o`z diyorimga.

Sha`nimga g`ayurlar bir so`z demasin,
Har kim o`zi tortar umr kemasin.
Hech kimni mushtoqlik dardi yemasin,
Meni olib keting o`z diyorimga.





Talpingan diyorim, u - O'zbekiston!
Sehrini aytishga bormi hech imkon!
Yo'q, o'zga yurtlarda berolmasman jon,
Meni olib keting o'z diyoringa.

INJU DIYOR UCHUN

Abdulla Oripov

Qutlug' davralarda jam bo'lgan mahal,
Do'stlarga baxt tilash azaliy odat.
Keladigan bu yil tinch bo'lsin avval,
Baxsh etsin har kimga oliy saodat.

Yoshlik - bu karvonning erka noridir,
Daryoday toshqindir, jilg'a kabi sof.
Yoshlik - kelajakning xaloskoridir,
Sira tark etmasin yoshlikni insof.

Mo'tabar onalar - xonamiz ko'rki,
Otalar hayotdir - yorug'dir jahon.
Tiriklik nomiga bir o'tinch shulki,
O'rtaga tushmasin bemahal hijron.

Inju diyorimiz ko'z bo'lsa agar,
Mudom omon bo'lsin to'garak zamin.
Boshimiz silagan shu xalq mo'tabar,
Daf'atan chekmasin farzandlar dog'in.

Yangi yil sha'niga aytmoqdamiz so'z,
Balki o'tib ketar bir zum bu farah.
Xalqimning mehnatin aylagin ko'z-ko'z
Million chanoqlarda ko'pirgan qadah.

TURKISTON BOLALARIGA

Abdulla Oripov

Turkistonning bolalari, maqtovimga qulq tutmang,
Gina qilsam chidang, ammo gaplarimni hech unutmang.

Eng avvalo, shajarangiz qaydan chiqqan, bilib oling,
Siz ham bashar farzandisiz, Haqni bayroq qilib oling.



Men Temurdan so‘zlayinmi, so‘zlayinmi Navoiydan,
Barchasini o‘qigansiz, eshitgansiz yo roviydan.

Tarixingiz shundoq uzoq, jangu jadal desa ham bor,
Bosqin ham bor, toshqin ham bor, kasbu amal desa ham bor.

Bobur bo‘lib so‘radingiz qo‘ni-qo‘shni dunyolarni,
Mashrab bo‘lib kezdingiz goh qashqir yurmas sahrolarni.

O’t ketsin u qora kunga - birovlarga qul bo‘ldingiz,
Sharqu G‘arbning o‘rtasida oyoqosti yo‘l bo‘ldingiz.

Biroq iymon nuri doim oqib turgan qoningizda,
O’zingiz ham sezmagansiz, bir gavhar bor joningizda.

Ming-ming shukr, zamon kelib istiqbolga erishdingiz,
Xarob bo‘lgan xonadonni butlamoqqa kirishdingiz.

Hurlikniyu saodatni muborakbod etgum, lekin
Aytib qo‘yay, qulog‘ingiz bitgan ekan sekin-sekin.

Nazaringiz tushar avval zebi-ziynat dasturxonga,
Hanuz ta’zim qilmoqdasiz mol-dunyosi bor insonga.

Bo‘y-bastini ko‘rsatguvchi urfoni zo‘r millat qani,
Sizning uchun obro‘ - oltin, arzongarov shuhrat - ma’ni.

Yuragida javhari bor kimsalarni ko‘rmagaysiz,
Karnayi yo‘q bechoraning to‘yiga yo‘l burmagaysiz.

Har qadamga xushomadni o‘z o‘rniga qo‘yolsaydim,
Peshvolarning poylariga haftada qo‘y so‘yolsaydim,

Bo‘lmas edi mendan ulug‘, mendan aziz biror inson,
Oh, xalqimni ne ko‘ylarga solding zamon, solding zamon.

Turkistonning bog‘larida bulbullari bor, holbuki,
Xor bo‘lsa ham tog‘day baland ko‘ngillari bor, holbuki.

Birov u yon tortar bo‘lsa, birov bu yon tortayotir,
Qonsiragan jallodlarning shodliklari ortayotir.

Bilib bo‘lmas rost gap qayda, bilib bo‘lmas qayda yolg‘on,
Malomatga yo‘liqadi, elga: “Birlash” degan inson.

Turkistonning bolalari, Turkistonning bolalari,
“Puf” deganda to‘zg‘igudek mo‘jazgina lolalari.

Chinor bo‘lib ildiz oting, qoya bo‘lib tiklangiz qad,
Ulug‘-ulug‘ ajdodlarning xavotiri Sizdan behad.

Soyangizda panoh topsin horib tolgan qondoshingiz,
Unutmangki, bul chamanda har bir yaproq jondoshingiz.

To‘qayzori bo‘lmasa gar sheru arslon qaydan unar,
Bir manzili bor ekanki, burgutlar ham kelib qo‘nar.

Oldindadir hali zahmat, oldindadir imkoningiz,
Osilmagan ne-ne Mashrab, otilmagan Cho‘lponingiz.

O’tinch ila hasratimni nasihat deb yuzga solmang,
Xudo insof bergen kuni barmog‘ingiz tishlab qolmang.

Muruvvatu ma’rifatdir buyuklikning nishonasi,
Qadam qo‘ying, mana sizga dong‘il yo‘lning ostonasi.

Turkistonning bolalari, Turkistonning bolalari,
“Puf” deganda to‘zg‘igudek mo‘jazgina lolalari...